

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘zRFA V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

AXBOROT XATI

“HISOBLASH MODELLARI VA TEXNOLOGIYALARI (CMT2024)”

Professor M.I. Isroilov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan
uchinchi xalqaro seminar

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti (O‘zMU), O‘zbekiston, Toshkent
2024 yil 27 aprel

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti va V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti amaliy matematika sohasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilarni o‘zlarining maqolalari bilan 2024 yilning 27 aprelida professor M.I.Isroilov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan “Hisoblash modellari va texnologiyalari” nomli uchinchi xalqaro seminarda ishtirok etishga taklif qiladi.

Seminarning maqsadi tadqiqotchilarning hisoblash modellari va texnologiyalari sohasi bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari bilan o‘rtoqlash va ilmiy munozaralar uchun muhit yaratishdir.

Qabul qilingan tezislarning tezislarni to‘plamida chop etiladi va seminar saytiga joylashtiriladi.

Tezislarni <http://cmt.nuu.uz/ru/papersubmissions/> veb sahifadagi namunada va quyidagi ko‘rsatilgan talablar asosida Word formatida, o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida, <http://cmt.nuu.uz> veb saytda registratsiyadan o‘tib yuklashingiz so‘raladi.

Materiallar hajmi 3 bet to‘liq A4 formatda (210 x 297 mm). Chegaralar - chapda 30 mm, yuqorida, pastda va o‘ngda 20 mm. Shrift - Times New Roman o‘lchami 14 pt. Satr oralig‘i bir interval. Abzats- 12,5 mm. Formulalar markazda joylashgan MathType muharririda yozilishi hamda formula raqamlari o‘ng chetida bo‘lishi kerak. Chizmalar va rasmlar matnga MS Word ob‘ektlari sifatida kiritilishi lozim. Rasmlarning nomlari rasm ostida joylashgan, jadvallar nomlari abzats bilan jadvallar ustida joylashtiriladi (1-rasm. Rasmning sarlavhasi, 1-jadval. 1-jadvalning sarlavhasi). UDK indeksi yuqori chap burchakda joylashgan. Materiallarning sarlavhasi markazda, paragrafsiz, bosh harflar bilan yoziladi. Muallif(lar)ning familiyasi, ismi, sharifi quyida bosh harflari bilan bir interval bilan beriladi. Keyingi qatorda - ta'lim muassasasining (korxonasi, tashkilot) to‘liq nomi va keyin - shahar, mamlakat, E-mail adresi.

Talabalar, doktorantlar va yosh olimlar;

Soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar va boshqalarning

ISHTIROK ETISHI TAVSIYA ETILADI.

QUYIDAGI SHO‘BALARDA MA‘RUZALAR QABUL QILINADI:

1. Hisoblash matematikasi;
2. Axborot xavfsizligi;
3. Matematik modellashtirish;
4. Sun‘iy intellekt.

Seminar tashkiliy qo‘mitasi va o‘tkazish joyi: Toshkent sh., O‘zMU,
Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakulteti, A403, O‘zMU bosh bino majlislar zali
tel: +998712271721, +998998210671, <http://cmt.nuu.uz/>, cmtnuu@gmail.com.

SEMINAR TASHKILIIY QO‘MITASI